

**FRAZEOLOGIZMLARNING USLUBIY XILMA-XILLIKLARI VA
NUTQDAGI AHAMIYATI**

O‘razboyev Olimjon Rustam o‘g‘li

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat

universiteti magistranti

Annotatsiya: *Iboralar ahamiyati va qo‘llanishi jihatdan odatda teng keldi. Iboralar ko‘proq so‘zlashuv nutqida va badiiy asarlarda ishlatiladi. Ulardan unumli foydalanish nutqning ta’sirchanligini oshiradi. Maqolada aynan shu fikrlarga to‘xtalib o‘tildi.*

Kalit so‘zlar: *Frazema, ko‘chma ma’no, personaj nutqi, lug‘aviy mazmun, mazmun plan, semantika.*

Abstract: *Hebrews are generally equal in importance and usage. Phrases are mostly used in colloquial speech and works of art. Effective use of them increases the effectiveness of the speech. The article focused on these points.*

Key words: *phrase, figurative meaning, character speech, lexical content, content plan, semantics.*

Аннотация: *Еврейские слова в целом одинаковы по важности и использованию. Фразы чаще всего используются в разговорной речи и произведениях искусства. Эффективное их использование повышает эффективность выступления. В статье основное внимание уделялось этим моментам.*

Ключевые слова: *словосочетание, переносное значение, характер речи, лексическое наполнение, контентный план, семантика.*

O‘zbek tili- ona tilimizning juda boy, ma’nodor, jozibali va rang-barangligi Navoiy zamonidayoq isbotlangan. Iboralar bu til mazmunini yanada boyituvchi ma’naviy hazinadir. O‘zbekistonda maqol naql, iboralar ustida ilmiy-ijodiy ishlar

olib borgan kitoblar nashr ettirgan ziyolilarning asarlari bu borada sezilarli yutuqlaridir.

Tilshunoslikda leksemalar bilan birgalikda nutq ta'sirchanligini oshiruvchi frazemalar ham ko'p qo'llaniladi. Frazemalar tilshunoslikning frazeologiya sohasida o'rganiladi.

Frazeologizmlar semantik jihatdan bo'linmaydigan, barqaror tarkibga ega bo'lib, ko'chma ma'no ifodalovchi til birliklaridir.

Ikki va undan ortiq so'zdan tarkib topgan va yaxlit bir ko'chma ma'no ifodalaydigan, ta'sirchanlikka ega bo'lgan til birligi ibora yoki frazeologik birlik deyiladi. Masalan, qo'y og'zidan cho'p olmagan (yuvosh) kapalagi uchib ketdi (cho'chidi) og'zing qani desa qulog'ini ko'rsatadi (lapashang) va shu kabilar.

Ibroralar ahamiyati va qo'llanishi jihatdan odatda teng keldi. Iboralar ko'proq so'zlashuv nutqida va badiiy asarlarda ishlatiladi. Ulardan unumli foydalanish nutqning ta'sirchanligini oshiradi. Shuning uchun ham yozuvchi va shoirlar obrazlilikni, emotsional-ekspressivlikni ta'sirchanlikni oshiruvchi vositalardan frazeologik birliklarni ham asarlarida keng ishlatadilar. Chunki frazeologizmlar orqali personaj nutqi, xarakter qirralarini to'liq yoritish imkoni kuchlidir.

Ma'lum frazemalar tilda biron ma'noni ifodalab kelar ekan, uning varianti yoki sinonimi esa o'sha ma'noni anglatibgina qolmasdan, boshqa ma'no ottenkalarini ham ifodalab keladi.

Uslubiy baho ifodalashning leksemadagi va frazemadagi mavqeyi farqli. Bunday baho leksemalarning ko'pida yoqqol ifodalanib turmaydi, ba'zan esa. Bunday baho leksemani turlicha ma'no munosabatiga kiritish, turlicha qo'llash bilan hosil qilinadi. Frazemalarning ko'pida esa uslubiy baho uning mazmun rejada doimiy tarkibiy qism bo'lib qatnashadi, ba'zan frazema ma'nosini butunlay qamrab olgandek, ko'mib yuborgandek bo'lib ko'rinadi.

Frazemalar, odatda, voqelikni nomlabgina qolmay, uni baholab ham turadi. Frazemalarning tilda yashashini oqlab turuvchi sabablardan biri, balki birinchisi shu. Masalan, quyidagi parchalarda ishlatilgan frazemalar ma'lum bir voqelikni

nomlaydi (yer- ko'ka ishonmaslik - «o'ta darajada ardoqlamoq», bosh(i)ga ko'tarmoq II-«yuksak darajada izzat-hurmat qilmoq», mukka (si)dan ketmoq - "o'zini tiya olmaslik darajasida berilib ketmoq", til biriktirmoq-«yashirin holda kelishib olmoq»), shu bilan bir vaqtda bu voqelikka munosabatni ham ifodalaydi. (avvalgi ikki frazemada ijobiy munosabat, keyingi ikkisida esa salbiy munosabat ifodalanadi).

Frazemaning mazmun planiga mansub uslubiy baho ham, xuddi leksemada bo'lganidek, stilistik sema deb yuritiladi.

Leksemaning mazmun rejasidan kelib chiqib belgilangani kabi, frazemaning mazmun rejadan kelib chiqib ham turkumlik semasi belgilanadi. Masalan, echkiñ aldinki tuyagi yali - frazemasidan "predmetning belgisi" ekani, qon(i)ni so'rmoq "ganini içmāk" - frazemasidan "predmetning harakati", ko'z ochib yumguncha (göz açip yuminça "frazemasidan "harakatining belgisi" anglashiladi, ana shu turkumlik semalari asosida bu frazemalar sifat, fe'l, ravish turkumlariga kiritiladi.

Yangidan-yingi lug'aviy mazmun bilan ishlatish frazemalarda ham anchagina uchraydi. Masalan, chakagi ochildi frazemasida, odatda, chaqaloqning yig'lashiga, sergaplikka qarata aytiladi Oybek "Quyosh qoraymas" romanida bu frazemani juda ustalik bilan yangi bir hodisa (pulemyotning o'q uzishi) ga ko'chirgan. Bunday yangi kontekstada qo'llash (Pulemyotning chakagi ochilib ketdi) muvaffaqiyatli chiqqan.

Frazeologik qo'llash hamma vaqt ijobiy bo'lavermaydi. Masalan, quyidagi frazeologik qo'llash durust chiqqan, ammo kichik bir nuqson ham bor: Sevgining naqadar pok, naqadar muqaddasligini yetti uxlab tushida ko'rmagan va uni muruvvatsiz qo'lda so'lgan chechak kabi xoksor qilgan ishq jalloblarining noziga quloq solgan xudo to'tiqushning bolalaridek bir-biriga zor, intizor bo'lib, bir-biriga yetisholmay xor zor bo'lib yurgan miskinlar ohiga nechuk quloq solmas ekan? Bu frazema «hech qachon ko'rmaslik" ma'nosini anglatadi va ko'rish mumkin bo'lgan predmetlarga nisbatan ishlatiladi. Yozuvchi bu frazemani yangicha kontekstda (sevgining pokligi, muqaddasligi leksemalari bilan bog'lab)

ishlatgan. Natijada bu frazema tamoman yangi ma'noni - «bilmaslik» ma'nosini anglatish uchun xizmat qildirilgan. Bu bilan frazemaning ma'nosi to'g'ri taraqqiy ettirilgan. Ammo bu frazema mavhum belgi otlarini bevosita boshqarib kelishi o'rinli chiqmagan. Agar bu frazema to'gridan-to'g'ri sevgini so'z formasini quyidagicha boshqarib kelsa edi, muallif bu nuqsondan qutular edi: Pok, muqaddas sevgini yetti uxlab tushida ko'rmagan...

Frazeologik qo'llanish frazemmi noo'rin ishlatish hollaridan farq qilish kerak. Burdan binchisi jodiy yondashish bo'lsa, ikkinchisi tilni bilmaslik, til qonuniyatlari bilan hisoblashmaslik natijasidir. Masalan, quyidagi parchada frazema noo'rin ishlatilgan: Ko'rinmaydi ko'zimga Tor qafasda turganim, esga tushar bog'chada Erkin sayrab yurganim. Bu yerda ishlatilgan ko'z(i)ga ko'rinmaslik frazemasini kishi uchun eng qadrlil, eng yoqimli kishi yoki narsaga qarata aytiladi, she'rdagi "tor qafas" ni bunday predmet deb bo'lmas.

Har bir tilning frazeologik vositalari o'sha til egalarning asrlar mobaynidagi madaniyati, tarixi, turmush tarzi bilan chambarchas bog'liq. Shu bois, har bir tilning frazeologizmlari milliyliigi bilan xarakterlanadi. Har bir til frazeologizmida milliy kolorit o'z aksini topgan bo'ladi.

Ma'lumki, har bir milliy til o'z taraqqiyotida mukammallashib boradi: uning grammatik va fonetik normalari barqarorlashadi, lug'at tarkibi esa boyib boradi. Shuning natijasida til eng murakkab fikrlarni chiroyli va har xil formada ifodalash xususiyatiga ega bo'ladi. Tilning rivojlanish jarayonida frazeologiya fondi boyiydi, nutqning obrazlilik va emotsionalligi oshib boradi.

Frazeologik birliklar hayotning hamma tomonlarini o'zida aks ettiruvchi til vositasidir. Har xil kasb egalari o'z fikrlarini yorqin ifodalash uchun original so'z birikmalarini, bo'yoqdor metaforalarni mohirlik bilan topib qo'llaydilar. Keyinchalik, ularning ko'pchiligi boshqa soha vakillari nutqida ham qo'llana boshlaydi. Ular adabiy tilda o'z o'rniga ega bo'ladi va shu bilan umumxalq til vositasiga aylanadi.

Frazeologik birliklar asosan turmush kechinmalari tufayli yuzaga keladi. Ularda hayot tajribalari, xalqning purma'no fikrlari aks etgan bo'ladi.

Xalq tomonidan yaratilgan frazeologizmlar inson xarakteri bilan bog‘liq turda ifodalanib, obrazli til vositasi sanaladi. Ko‘pincha frazeologik birlik ko‘chma obrazli ma’no ifodalovchi fikrlar, hayotiy mantiqiy umumlashmalar asosida tuziladi. Lekin tillarda shunday frazeologizir ham borki, ular diniy irim va afsonalar, amaliy faoliyat davomida, tarixiy asosda yaratilgan bo‘ladi. Bunda frazeologizmlarda milliy kolorit kuchli bo‘ladi.

Badiiy til adabiiy asarning qurilishini tashkil etadigan vositadir. Badiiy asarning ta’sirchanligi, til boyliklarga bog‘liqdir. Badiiy tilda so‘z bir xil shaklga ega bo‘lishi mumkin, leki uning bir necha ma’no munosabatlarini topish jodkorning mahoratiga bog‘liq so‘zning sehri, uning tafti, jarangini ochish ham jodkor tomonidan ishg‘ol etilajak qoyaga o‘xshaydi.

Shunga ko‘ra frazeologizmlarning tuzilishi va semantik xususiyatlari jihatida xilma-xil bo‘ladi. Tuzilishiga ko‘ra, ikki, uch, va to‘rt so‘zdan tarkib topgan frazeologizmlar semantik xususiyatlariga ko‘ra omonimik, sinonimik va antonimik munosabatda bo‘lishi mumkin. Masalan, otangga rahmat, qanday shamol uchirdi, yuragida kiri yo‘q, og‘zi buzuq. nafsi hakalak otadi, pixini yorgan, puf sassiq, egasiz qolgur, og‘zi shaloq. oting qashqasiday kabi frazeologizmlar ekspressivlikni ifodalashi jihatidan bir xil darajada bo‘lmay, ularning ayrimlarida ijobiy ma’no, ayrimlarida esa salbiy ma’no bo‘rtib turadi. Frazeologizmlarda ekspressivlikni ifodalash xususiyati doimiy va nisbiy xarakterda bo‘ladi.

Ekspressivlikning doimiyligi ma’lum bir shaklda qotib qolgan frazeologizmlarda mavjud bo‘lib, ular ko‘pchilikni tashkil qiladi. Tomdan tarasha tushganday, chuchvarani xom sanabsan, xom sut emgan banda, ammamning buzog‘i, almisoqdan qolgan kabilar shular jumlasidandir.

Ekspressivligi doimiy bo‘lgan frazeologizmlar ifodalagan ma’no ular komponentlarining ma’nolaridan kelib chiqmaydi, tarkibida qancha so‘z bo‘lishidan qat’i nazar, yaxlitligicha bir butun ma’noni ifodalaydi. Ularda nominativ va qo‘shimcha ma’nolar ajralmas birlik hosil qilgan bo‘lib, ularning komponentlari orasidagi grammatik bog‘lanish yo‘qoladi.

Frazeologizmlarda ekspressivlikni nutqda toʻlaligicha, borligicha ifodalash, natijada fikrning taʼsirchanligiga erishish butun hodisasining oʻziga xosligidan dalolat beradi. Frazeologizmlar ayniqsa soʻzlashuv uslubida keng qoʻllanilib, munda ham matndan tashqari holatda ham oʻz ekspressivlik xususiyatini saqlay oladi. Bunga taʼsir qiluvchi bir qancha omillar mavjud. Ular quyidagilardan iborat.

1. Frazeologizmlar tarkibidagi soʻzlarning umumlashgan koʻchma maʼnosi asosiga qurilgan boʻlib, ular ifodalaydigan maʼno zamirida metaforik asos yotadi. Masalan, til tekizmoq frazemasi shaʼniga nomunosib, nohaq gap aytmoq maʼnosini anglatadi. Bu maʼno frazema tarkibidagi leksemalarning maʼnosidan kelib chiqmaydi. Bunday maʼno obraga suyanib yuzaga keladi: tegizish harakatidan kelib chiqsak, til deganda fiziologik organni tushunish kerak, ammo bu oʻrinda til soʻzining boshqa maʼnosi nutq qatnashadi. tegizmoq feʼlining maʼnosi shu nutq maʼnosini gap, soʻz maʼnosi darajasiga konkretlashtiradi. Ayni vaqtda biror soʻz gapni begʻaraz aytish emas. tegizib aytish koʻzda tutiladi, shundan aytiladigan soʻz-gapning nomaqbul boʻlishi kelib chiqadi. Mana shu xususiyati ularga ikki xil semantik rejada qarashga sabab boʻladi. Birinchisi, frazemaning toʻgʻri maʼnosi boʻlsa, ikkinchisi undan kelib chiqadigan koʻchma maʼnosidir.

2. Frazeologizmlar oʻzining erkin uyushmasiga juda yaqin turishi bilan xarakterlanadi. Ular erkin uyushma sifatida ham, frazema sifatida ham aynan bir xil maʼnoni ifodalaydi. Masalan, koʻz ochib yumgancha; orasida yer bilan osmoncha; kechani kecha, kunduzni kunduz demay. Frazeologizmlar predmet, harakat, holatning vaqt, masofa, hajm jihatidan belgisini bildirishga xoslangan boʻlib, shu maʼnolarni kuchaytirish uchun xizmat qiladi va ularda ekspressivlik ancha kuchli va doimiydir.

3. Grammatik jihatdan aniqlovchi aniqlanmish modelida tuzilgan frazeologizmlar komponentlaridan birining koʻchma maʼnosi asosiga qurilgan boʻladi. Bunday frazeologizmlar tasviriylik uchun xizmat qiladi. Gʻalaba tongi

yoshlik to'liqini, qalb taronalari, ochiq gap, temir iroda kabilar shular jumlasidandir.

4. Sifatlovchi-sifatlanmish modelida tuzilganda frazeologizmlar uslubiy cheklangan (tulki odam-ayyor odam: nordon gap-noxush gap; gul yigit-yaxshi yigit) yoki uslubiy cheklanmagan (o'pkasi yo'q kishi yengil kishi, fil odam - og'ir odam) turlarga bo'linadi.

5. Frazeologizmlarning ayrimlarida mavhumlikka tomon siljish darajasi acha kuchlidir. Bu xil frazeologizmlarning ko'pida kelib chiqishga asos bo'lgan maba unutilib ekspressivlik darajasi doimiy va kuchli bo'ladi: jigaridan urmoq, qovog'idan qor yog'moq, jonidan bezor bo'lmoq, bo'zchining mokisiday

So'zlashuv nutqi uslubidagi ba'zi frazeologizmlarda ekspressivlikni ifodalash nisbiy xarakterda bo'ladi.

Ekspressivlikning darajalanishini bir frazemaning variantlilikida ko'rish mumkin. Variantlilik frazema tuzilishidagi fonetik, leksik va grammatik vositalar hisobiga bo'ladi. Natijada frazeologizmlarning shu vositalar asosida ekspressivligi ham o'zgaradi. Masalan, sochi tikka bo'ldi frazemasida ekspressivlik eng quyi darajada deb hisoblasak, uning tarkibida yuz beradigan fonetik o'zgarish (sochi tippatik bo'ldi) yoki grammatik o'zgarish (sochlari tikka bo'ldi, tepa sochi tikka bo'lib ketdi) asosida ekspressivlik darajasi oshadi. So'zlashuv nutqi jonli va hayotiydir. Unda kishilarning kundalik turmushidagi o'zaro ijobiy yoki salbiy munosabatlari o'z ifodasini topadi. Ijobiy ma'no ottenkasini ifodalovchi frazemalar qatoriga erkalash, xushmuomalalik bilan aloqador frazeologizmlarni kiritish mumkin: Ixtiyor o'zingizda, kutmayman desangiz aytib ko'ring, xo'p desa, nur ustiga a'lo nur (M. Ismoiliy).

Jonim, poshshoxon, qayerliksiz, qanday shamol sizni bu yerga uchirdi? (Oybek). Dono odamga sadqa bo'lsang arziydi (Oybek). To'papiso o'zi haqidagi maqtovga kelganda og'zining tanobi qochdi (A. Qahhor). Keltirilgan misollardagi nur ustiga a'lo mur, qanday shamol uchirdi, sadqang bo'lay, og'zining tanobi qochmoq kabi frazemalar ijobiy ma'nolarni ifodalaydi.

Salbiy ma'noni ifodalovchi frazeologizmlarda suhbatdoshlarning tinglovchiga nisbatan kinoyasi, dag'alligi, kamsitishi, kesatishi, nafrati, jirkanishi so'kishi, koyishi qarg'ishi ifodalanadi: *Odangarchilikni ham biladi bu tuz ko'r qigur!* (A.Qodiriy), *Oy podshoning taxti kuysin! Qorasi o'chsin!* (Oybek) *Nima qilib yalpayib o'tiribsiz deydi buvim bobomga tikilib* (Oybek). *Ha, onang ko'r pasiga qarab oyoq uzatdim.* (Oybek), *Mikarimboy burnini tishlab qolsin!* (Oybek). Bu urush boshqa bitgan balo bo'ldi- da. Bu yoqqa kel, it emgan! dedi mingboshi qizil ko'zlarini ola-bula qilib. Yuqorida misollarda keltirilgan frazeologizmlarda so'zlovchining tinglovchisiga salbiy munosabati o'z ifodasini topgan.

U yoki bu iborani qo'llashda uning xoslanishinigina emas, balki ekspressiv baho bo'yog'ini ham hisobga olish lozim bo'ladi: «-Sizning «Volgani? O'zi aka, jiyda-piydaning tagidan o'tib qoldingizmi, sizlarni « Volga» bu yerda, tog' orasida nima qiladi?». «Uning ko'ngil yarasiga malham bo'lib, umidsizlikka tushib, qo'li ishga bormay qolgan shu kunlarda so'rab-surishtiradigan, dalda beradigan kishi bormi?» Keltirilgan misollarning dastlabkisida oddiy so'zlashuv uslubiga xos «jiyda-piydaning tagidan o'tib kelmoq» iborasi cho'pon nutqi tarkibida ekspressiv bo'yog'i salbiy ottenka ifodalanmoqda, matn esa ijobiy ottenka uchun xizmat qilishga bo'ysundirilgan. Keyingi misolda birinchi ibora «ko'ngil yarasiga malham bo'lib» noo'rin joylashgan.

Ko'pincha o'zga uslubga xos iboraning qo'llanishini har ikkala tomonidan qo'yilgan qo'shtirnoqlar ko'rsatib turadi. Bunday grafik belgi o'zga uslubga xos iborani ajratib, ta'kidlab ko'rsatadi: «Tilingni chayon chaqadimi, "da" ni ishlatsang» derdi dugonalarim. «O'g'irlik» qilishga «tishi» o'tmadi va boshqalar.

Demak, iboralarni qo'llashda ularning uslubiy ma'nosini, komponent tarkibini, matn bilan munosabatini hisobga olish, uslubiy xilma-xillikka yo'l qo'yimaslik lozim bo'ladi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Раҳматуллаев. Ш . Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари Фил .фан док ...диссер. -Т. Б :362.

2. Поливанов Е.Д. Введение в языкознание для востоковедных вузов. – Л., 1928. –Б:60-61.
3. Раҳматуллаев.Ш. Ҳозирги замон ўзбек тилидаги образли феъл фразеологик бирликларнинг асосий грамматик хусусиятлари. Филол.фанлари номз...диссер. -М. 1952.Б: 55.
4. Турсунов. У.Т. Состояние и задачи изучения фразеологии узбекского языка. Вопросы фразеологии. Труды СамГУ, выпуск 106, -Самарканд, 1961. Б:106.
5. Ibragimova Z. Khazirbayeva M DIALECT OF TURKISH NATION INKARAKALPAKISTAN. ASIAN JOURNAL OF RESERCH IN SOCIAL SCIENCES AND HUMANITIES.2022. B: 92-95.
6. Ibragimova Z.Xazirbayeva M. Qoraqalpog‘ istondagi turkiy xalqlar shevalarida frazeologizmlar. “O‘ZBEK SHEVALARI TADQIQOTLARI AMALIYOT, METODOLOGIYA VA YANGICHA YONDASHUV” .Toshkent-2022. B:189-193.